

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 20 apreldagi PK-2909-son Qarori 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevral O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish beshita ustuvor yunalishi buyicha Xarakatlar strategiyasi

12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - I. - O'zbekiston, 2017. - 46 b.

13. Xodiev B.Yu. Samadov A. «Kichik tadbirkorlikda moliyaviy menjmet» Toshket-2004yil

Internet saytlari:

<http://www.uza.uz> (O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy veb sayti);

<http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb sayti);

<http://www.soliq.uz> (Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb sayti);

<http://www.stat.uz> (Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb sayti);

<http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sayti);

<http://www.cer.uz> (Iqtisodiy tadqiqotlar markazining rasmiy veb sayti);

<http://www.idiu.uz> (Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining rasmiy veb sayti); <http://www.tfi.uz> (Toshkent moliya institutining rasmiy veb sayti); <http://www.iqtisodivot.uz> (Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jum alining rasmiy veb sayti).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“Iqtisodiyot” fakul'teti

“Biznes va innovatsion menejment” kafedrasi

Ro'yxatga olindi

Nö

1134

2022 yil “28” 12



“KORPORATIV BOSHQARUV” FAN SILLABUSI

Bilim sohasi:

200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lim sohasi:

230000 - Iqtisod

Ta'lim yo'nalishi:

5230200 - Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

QARSHI – 2022 yil

Ushbu fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 202 yil _____ dagi № _____-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Tuzuvchi:
Berdiyev J.Q. - "Biznes va innovatsion menejment" kafedrası katta o'qituvchisi

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasining 2022 yil "06" 12 06-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida 2022 yil "19" 12 dagi 5-son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan. Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil "24" 12 dagidagi 5-son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i _____ dots. A.R.Mallayev

"Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy komissiyasi raisi: _____ dots. A.B.Qurbonov

"Biznes va innovatsion menejment" kafedrası mudiri: _____ dots. A.N.Raximov

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiriladi.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi O'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'lkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI Asosiy adabiyotlar

1. Иванова Э и др. Корпоративное управление. Рочов на Дону "Феникс", 2008г.
2. B.Berkinov, N.Pulatov Aktsiyadorlik jamiyatlari. T.:TDIU, 2007
3. A.Bekunurodov, B.Safarov. Qishloq joylarda savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish yo'nalishlari. T.:TDIU, 2007
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 25.01.2020 y. 29.12.2020 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 25.01.2020 y.
6. SH.M.Mirziyoyev. "Niyati ulug' xalqning ishi xam ulug', xayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" O'zbekiston» 2019 y.
7. SH.M.Mirziyoyev. Tankidiy taxlit, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak Toshkent «Uzbekiston» NMIU, 2017
8. SH.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik Uzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz O'zbekiston» NMIU, 2016
9. SH.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oiljanob xalqimiz bilan quramiz. T.:, O'zbekiston, 2017

Laboratoriya mashg'ulotlari
rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talabalar mustaqil ta'limning mazmuni va hajmi

T/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Ajratilgan soat
1.	"Korporativ boshqaruv" kursiga kirish	6
2.	Korporativ boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi	6
3.	Korporativ boshqaruv zamonaviy amaliyoti va modellari	6
4.	Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat	6
5.	Davlatning korporativ sektorda qatnashishi	6
6.	O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari	6
7.	Korporativ boshqaruv organlari	6
8.	Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitida korporatsiyalarning faoliyat ko'rsatish mexanizmi va ularning xususiyatlari	6
9.	Mas'uliyati cheklangan jamiyatni tuzish va faoliyatini boshqarish xususiyatlari	6
10.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporativ boshqaruvni moliylashtirish	6
11.	Korporativ nizolar	6
12.	Korxonalarni restrukturizatsiyalash	6
13.	Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash	6
14.	Korporativ boshqaruvda axborot va kommunikatsiya	6
15.	Aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda audit va ichki nazorat tizimi	8
16.	Korporativ madaniyat	8
17.	Korporativ boshqaruv muammolari va rivojlanish istiqbollari	8
Jami		108

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollarga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

FAN SILLABUSI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“KORPORATIV BOSHQARUV” fani sillabusi

Fan (modul) kodi KBA2216	O'quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS krediti 6
Fan (modul) turi Tanlov fan	Ta'lim tili o'zbek		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 72	Mustaqil ta'lim 108	Jami yuklama 180
“Korporativ boshqaruv”			

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	Biznes va innovatsion menejment		
O'qituvchilar	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
Ma'ruzachi	Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich	+998 97 3166834	Jasur8005@mail.uz
Amaliy mashg'ulot	Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich	+998 97 3166834	Jasur8005@mail.uz
Laboratoriya mashg'uloti	-	-	-

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishning maqsadi - talabalarga korporativ boshqaruv asoslarini amaliyotga qo'llay oladigan darajadagi bilim va ko'nikmalar xosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga korporativ boshqaruv asoslarini o'rganish; korxonalarda xodimlarni boshqarish strategiyasi va taktikasining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini bilish; yukori malakali kadrlarni shakllantirish va xodimlarni boshqarishning mezonlari, o'lchovlari va ko'rsatkichlarini; xodimlarni professional tanlash, o'qitish, malakasini oshirish; lavozimlarga birlashtirish va ko'tarish masalalarini; xodimlarni ishga qabul qilish va undan bo'shatish xamda xodimlarni boshqarishning xukukiy-me'riy asoslarini; korporativ boshqaruv bo'yicha ish yuritish asoslari va zaruriy xujjatlarni to'g'ri va tez rasmiylashtirishni; korporativ boshqaruv samaradorligini aniqlashni o'rgatishdan iborat.

“Korporativ boshqaruv” fani o'z o'rganish uslubi bo'yicha alohida iqtisodiy fan sifatida barcha mutaxassislikka oid iqtisodiy fanlar bilan va shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diplomatik fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

“Korporativ boshqaruv” fanini o'rganishda ma'ruza va amaliy (seminar) mashg'ulotlarida klaster, insert, aqliy xujum usullari, keyis-stadidan foydalanilib, kichik guruhlar usuli, muammoli ta'lim texnologiyalari, klaster usullari kabi ilg'or texnologiyalardan foydalaniladi.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

Fan buyicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. *Talaba:*

“Korporativ boshqaruv” fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- personalni boshqarishning hozirgi zamonaviy yo'nalishlari;
- korxonada personalni va uning tarkibi;
- korporativ boshqaruv modellari;
- korporativ boshqaruv tamoyillari va usullari;
- korporativ boshqaruv xizmatining vazifalari va funksiyalari;

personalni attestatsiyadan o'tkazish;

- jamoaviy shartnomalari va bitimlari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- korporativ boshqaruvkonsepsiyasini;
- personal lizingida mehnat munosabatlari;
- personalni boshqarishda yetakchilik nazariyasi asoslarini;
- mehnat jamoasini tashkil etish va uning shakllanish bosqichlarini;
- personalning uzluksiz ta'limini tashkil qilishni;
- personalni karvachini rejalashtirishni;
- kadrlar zahirasini bilan ishlashni *bilishi va ulardan foydalanish olishi*;
- personalni boshqarish strategiyasini ishlab chikish;
- personalni kasbga yunalitirish, joy-joyiga qo'yish va yangi xodimlarni xizmat vazifasiga moslashtirish;
- personalni strategik rejalashtirish mexanizmlarini baholash;
- mehnat nizolarini boshqarish;
- personalning mehnat motivatsiyasini oshirish;
- karyera dinamikasini tahlil qilish va rivojlantirish;
- personalni boshqarishda axborot texnologiyalari foydalanish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.
- boshqaruv tizimini tahlil qilishda personalni boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash; korporativ boshqaruvstrategiyasi natijalarini tahlil qilish; personalni strategik rejalashtirish mexanizmlarini baholash; korporativ boshqaruvtizimini samaradorligini prognoz qilish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi

- “Korporativ boshqaruv” fani umumkasbiy fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Statistika”, “Makroiqtisodiyot”, “Mehnat iqtisodiyoti, Inson taraqqiyoti”, “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanlaridan yetaricha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

- O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylanitradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchilik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin mulohaza yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqozo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

17.	Korporativ boshqaruv muammolari va rivojlanish istiqbollari	kompaniya qadriyatlarini, o'zaro munosabatlari uslubini, muhit qanday ekanligini belgilab beradi.	Turi mamlakatlarda korporatsiyalarni boshqarish tarkibi korporativ munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik asoslari, muayyan mamlakatda yuzaga kelgan xarakterli boshqaruv tarkibi kabi omillar bilan belgilanadi. Har bir mamlakatda korporatsiyalarni boshqarish tarkibi uni boshqa mamlakatlar tarkibidan farqlab turadigan ma'lum bir elementlarga ega.	2
Jami				34

Amaliy mashg'ulotlar

“Korporativ boshqaruv” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning kalendar tematik rejasini

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Soat
1	“Korporativ boshqaruv” kursiga kirish	2
2	Korporativ boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi	2
3	Korporativ boshqaruv zamonaviy amaliyoti va modellari	2
4	Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat	2
5	Davlatning korporativ sektorda qatnashishi	2
6	O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari	2
7	Korporativ boshqaruv organlari	2
8	Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitida korporatsiyalarning faoliyat ko'rsatish mexanizmi va ularning xususiyatlari	2
9	Mas'uliyati cheklangan jamiyatni tuzish va faoliyatini boshqarish xususiyatlari	2
10	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporativ boshqaruvni moliyalashtirish	2
11	Korporativ nizolar	2
12	Korhonalarni restrukturalizatsiyalash	2
13	Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash	2
14	Korporativ boshqaruvda axborot va kommunikatsiya	2
15	Aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda audit va ichki nazorat tizimi	2
16	Korporativ madaniyat	4
17	Korporativ boshqaruv muammolari va rivojlanish istiqbollari	4
Jami		38

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

12.	Korxonalarni restrukturizatsiyalash	kelishmovchiliklar va tortishuvlar tushuniladi: Korxonani restrukturizatsiyalash - bu tabiiy jarayon bo'lib, korxonaning yangi sharoitga moslashishga va moliyaviy-iqtisodiy sog' lomlashtirishga yo'naltirilgan chora tadbirlar majmuasidir. Bu jarayon korxonada menejerlari, mulk egalari yoki kreditorlar tomonidan, korxonaning yangilash va sog'lomlashtirish maqsadida, korxonaning kelajakda o'rinni belgilovchi maqsadlaridan kelib chiqib olib boriladi.	2
13.	Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash	Ko'plab kichik va yirik kompaniyalar uchun korporativ boshqaruv andozalari zaruriy ehtiyoj hisoblanmaydi. Ularning korporativ boshqaruv sohasidagi birlamchi vazifasi amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini yaxshilash hisoblanadi. Aytib o'tish kerakki, korporativ xulq-atvor Kodeksida bayon qilingan andozalarni joriy qilish korxonalar tomonidan aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari ishini ta'minlovchi va nazorat qiluvchi qator qo'mitalar tashkil qilishini, xodimlar sharti ro'yxatiga direktorlar Kengashi va uning qo'mitalari faoliyatiga ko'maklashuvchi korporativ kotib lavozimini kiritishini, direktorlar Kengashi tarkibiga mustaqil direktorlar kiritishini va h.k.ni talab qiladi.	2
14.	Korporativ boshqaruvda axborot va kommunikatsiya	Axborotlarni boshqaruv- bu kompaniyaning ma'lum darajadagi qaror qabul qilish demakdir. Bugungi kunda hayotimizni kompyuter texnikasi, axborot texnologiyalari, Internet, mobil telefon aloqasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish haqida gapirganda, yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish biz uchun muhim strategik ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etish darkor. Bu yo'nalishda 2009 yilda 12 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi.	2
15.	Aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda audit va ichki nazorat tizimi	"Nazorat - boshqaruv vazifalaridan biridir" degan tezisni qayta ko'rib chiqishga etarlicha uslubiy-nazariy yoki amaliy asoslar mavjud emas. Ayrim manbalarda mualliflar kontrollingni «boshqaruv faoliyatini boshqarish» sifatida qarab, kontrollingning maqsadini «boshqaruvchilik jarayonini korhonada oldida turgan barcha maqsadlarga erishishga yo'naltirish» da ko'rmoqda.	2
16.	Korporativ madaniyat	«Tadbirkorlik madaniyati» tushunchasiga eng to'liq va mufassal ta'rifni V.D.Kozlov «Tashkiliy madaniyatni boshqarish» kitobida bergan bo'lib, «ushbu tashkiliy struktura xodimlari xulq-atvori xususiyatlari, yakka tartibdagi va guruh manfaatlari, urf-odat va an'analar, rasmiy va norasmiy faoliyat me'yorlari va qoidalari, rahbariyat uslubi, xodimlarning mehnat sharoitlaridan qoniqqanlik ko'rsatmalari, o'zaro hamkorlik darajasi tizimi» deya ta'kidlagan. Shunday qilib, korporativ madaniyat	2

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;
- mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

IV. Fan tarkibi (ma'rufa mashg'ulotlari)

Nö	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1.	"Korporativ boshqaruv" kursiga kirish	Korporatsiya (lotincha korporatio - birlashish) - bu umumiy maqsadlarga erishish, birlashgan faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil sub'ektni - huquqiy shaxsni tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir. Korporatsiyalar - mulkchilikning hissadorlik shaklining zamonaviy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda bir necha mulkdorlar manfaatlarini birlashadi, yagona maqsad doirasida investorlar kapitalari birlashtiriladi.	2
2.	Korporativ boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi	Korporativ boshqaruv yirik biznes yuritish zarurati ob'ekti sifatida shakllangan. Tabiiyki, bundan oldin korporatsiyalar shakllanishining uzoq muddatli jarayoni ro'y bergan. Ma'lum bir bosqichda xalqaro hamjamiyat korporativ strukturalar joylashuvidan qat'iy nazar ularni boshqarish jarayonlarini soddalashtirish va bir xillashirishga imkon beradigan umumiy me'yorlar va andozalar ishlab chiqishga majbur bo'ldi. Korporatsiyalar shakllanishi umumjahon tendentsiyalarini tahlil qilib, mutaxassislar uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatadilar. Har bir bosqich jamiyatda o'sha paytda shakllangan korporatsiyalarga xos jihatlarni aks ettiradi.	2
3.	Korporativ boshqaruv zamonaviy amaliyoti va	Korporativ boshqaruv xalqaro tamoyillari quyidagicha ifodalanadi. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) korporativ amaliyoti va	2

	<p>organlari</p>	<p>o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig' ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig' ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotlar) ro'yxatini jamiyatning kuzatuv kengashi belgilaydi.</p>
8.	<p>Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporatsiyalarning faoliyat ko'rsatish mexanizmi va ularning xususiyatlari</p>	<p>Korporatsiyalarni eng tarqalgan tarifi bu - o'z oldiga ma'lum bir maqsadlar qo'ygan, jamiyat manfaatlarida harakat qiladigan, belgilangan huquqlarga ega, yuridik shaxs hisoblangan, doimiy asosda faoliyat yuritadigan va mas'uliyati cheklangan tashkilot hisoblanadi. Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi sub'ekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.</p>
9.	<p>Mas'uliyati cheklangan jamiyatni tuzish va faoliyatini boshqarish xususiyatlari</p>	<p>Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) deb bir yoki bir necha shaxslar tomonidan tasis etilgan, ustav fondi tasis xujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlarini bo'yicha javob bermaydilar va o'z ulushlari qiymati doirasida jamiyat faoliyati bilan bog'liq ziyon ko'rish tavakkalchiligini o'z zimmlariga oladilar.</p>
10.	<p>Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporativ boshqaruvni moliyalashtirish</p>	<p>Hissadorlik jamiyati faoliyat ko'rsatishining zaruriy sharti unda kapitalning mavjudligi hisoblanadi. Biroq buning o'ziga etari emas. Jamiyatning farovonligi bu kapitalni boshqarish qanchalik samarali amalga oshirishiga ham bog'liq bo'ladi. boshqaruv masalalariga doir ko'p sonli chop etilgan ma'lumotlar muayyan holat uchun tanlov qilish va uni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy ishlanmalar etari degan tasavvur uyg'otishi mumkin. Shu bilan birga, turli yo'nalishdagi korxonlarning faoliyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, aslida boshqaruv bu - qat'iy ishlab chiqilgan uslubiyatdan ko'ra san'atga yaqinroq. Kapitalni samarali boshqarishga o'rganish uchun a'niq tarkibini, har bir tarkibiy qismining xususiyatlarini, sifat va funktsional bog'liqliklarni yaxshi bilish talab etiladi.</p>
11.	<p>Korporativ nizolar</p>	<p>Har qanday nizoning mohiyatini tomonlar o'rtasida kelishuvning yo'qligi sifatida tariflash mumkin. Korporativ munosabatlar sub'ektlari o'rtasida manfaatlar muvozanatining yo'qligi korporativ nizolarga sabab bo'lishi mumkin. Korporativ nizolar deganda jamiyat aksiyadorlari o'rtasida, jamiyat aksiyadorlari va menejerlari o'rtasida, investorlar (potensial aksiyadorlar) va jamiyat o'rtasida vujudga keladigan, quyidagi oqibatlardan biriga olib keladigan</p>

<p>modellari</p>	<p>oqilona ishbilarmonlik me'yorlari. Bu hujjat 1997 yil Evropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan "Kupere end Laybrand" kompaniyasi bilan birgalikda kompaniyalarga nufuzli kreditorlar va investorlar tomonidan investitsiya qarorlari qabul qilishda qaysi jihatlari ko'proq hisobga olinishini yaxshi tushunish maqsadida tayyorlangan. ETTB korporativ amaliyoti va oqilona ishbilarmonlik me'yorlariga muvofiq kompaniyalarga manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:</p>	
4.	<p>Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat</p> <p>Dunyoda raqobat bo'lgan davrda, hamma mahsulot gomogendir. Sanoqisiz to'liq axborotlarga ega bo'lgan sotuvchi va sotib oluvchilar mavjud, lekin sotib olinadigan tovarlarga hech qanday ta'sir eta olmaydi. Bunaqa dunyoda foydaga hech qanday talab yo'qligi bilan teng strategiyaga ham hech qanday talab yo'q. Ko'pchilik bozorlarda kabi, sof raqobatga xech qanday qiyinchilik yo'q. Ular defitsit va assimetrikdir. Ularda sotuvchi va sotib oluvchilar cheklanganliklardir. Mahsulot gomogenligidadir, axborotlarni foydasizligidadir, yoki qandaydir firmaning boshqalariga nisbatan vakolatlariga egaligi va ko'chiligidir, boshqalar ishlab chiqarmaydigan mahsulot ishlab chiqarishi, yoki olib kelinishi cheklanganligidadir. Mustaxkam ishlab chiqilgan strategiya firmami, yaxshi tashkil etilmagan bozorda yuqori foyda oladigan strategiyalarni ishlab chiqqan xolda o'zining talablarini qo'ya oladi. Bunday vaziyatda strategiya ikkita muhim o'rinni egallaydi.</p> <p>Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida ba'zi bir A'lar ma'lum bir miqdordagi aksiyasiga davlatning egalik qilishiga yagona sabab "bozordagi yo'qotishlar"ning (market failure) mavjudligidir. Bu bozorlarda jamiyat manfaatlari va yo'qotishlari xususiy manfaat va yo'qotishlardan ustun bo'ladi. Bunday holat, masalan, bozor tuzilmasining monopollashtirish holida ro'y beradi. Bunda xususiy mulkdorning intilgan foydani imkoni qadar oshirish maqsadi jamiyat uchun (erkin raqobatchilik modeliga nisbatan) mahsulot miqdorining pasayishiga va nisbatan yuqori narxlarda sotilishi shaklida zararni anglatadi.</p>	
5.	<p>Davlatning korporativ sektorda qatnashishi</p>	<p>Korporativ boshqaruvning mexanizmlari davlat tartibiga solish organlari, sud organlari va ishbilarmonlar doiralarda ishlab chiqilgan ma'lum bir qoida, me'yor va andozalari asosi va doirasida ishlaydi. Ushbu qoida, me'yor va andozalarning majmuasi korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini tashkil qiladi.</p>
6.	<p>O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari</p>	<p>2</p>
7.	<p>Korporativ boshqaruv</p>	<p>Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi</p>